Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Parazitologiya kafedrasi assistenti Sh.X. Muxammadiyevaning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 60840100 – Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 502-guruh talabalari uchun tayyorlangan “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanidan “Otlarning paraskaridozlari” nomli ochiq amaliy dars ishlanmasiga

T A Q R I Z

Ushbu dars ishlanmasi “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanining namunaviy dasturi asosida tayyorlangan. Dars ishlanmasida mashg‘ulotning texnologik xaritasi, maqsadi va vazifalari, amaliy mashg‘ulot uchun zarur jihoz va asbob-uskunalar, foydalanilgan asosiy hamda qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati, topshiriqlar, mavzu mazmuni va nazorat savollari o‘z aksini topgan.

Dars ishlanmasida otlarda uchraydigan paraskaridoz kasalligining qo‘zg‘atuvchisi, uning sistematik o‘rni, morfologik va biologik xususiyatlari, rivojlanish sikli hamda epizootologik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, parazitning hayvon organizmiga patogen ta’siri, kasallikning klinik belgilari, diagnostika usullari, davolash va profilaktik tadbirlari to‘g‘risida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Dars ishlanmasi ixcham, sodda va tushunarli ilmiy tilda yozilgan bo‘lib, talabalar tomonidan mavzuni o‘zlashtirish uchun qulay tarzda shakllantirilgan. Mavzuga oid rasmlar, jadvallar va ko‘rgazmali materiallarning izohlar bilan berilishi talabalarning parazitning tuzilishi, rivojlanish bosqichlari va kasallikning asosiy xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavzu to‘liq yoritilgan bo‘lib, otlar paraskaridozining veterinariya amaliyotidagi ahamiyati, kasallikning tarqalishiga ta’sir etuvchi omillar, parazitning rivojlanish biologiyasi va hayvon organizmida keltirib chiqaradigan patologik o‘zgarishlari haqida zarur nazariy va amaliy ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, kasallikni davolash hamda oldini olish tadbirlarini o‘rganish bo‘lajak veterinariya mutaxassislarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Assistent Sh.X. Muxammadiyeva tomonidan tayyorlangan “Otlarning paraskaridozlari” mavzusidagi ochiq amaliy dars ishlanmasini ijobiy baholayman hamda undan ta’lim jarayonida foydalanishni tavsiya etaman.

“Parazitologiya” kafedrasi
v.f.d.professori **A.S.Daminov**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Parazitologiya kafedrasi assistenti Sh.X. Muxammadiyevaning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 60840100 – Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 502-guruh talabalari uchun tayyorlangan “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanidan “Otlarning paraskaridozlari” nomli ochiq amaliy dars ishlanmasiga

T A Q R I Z

Sh.X. Muxammadiyeva tomonidan tayyorlangan mazkur ochiq amaliy mashg‘ulot dars ishlanmasi “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanining o‘quv dasturi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Dars ishlanmasida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda mashg‘ulotning uslubiy jihatlari, ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlari, o‘qitish metodlari, kutilayotgan natijalar hamda talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar izchil bayon etilgan.

Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, texnologik xaritasi, o‘qituvchi va talabalarning faoliyati, amaliy mashg‘ulotni tashkil etish bosqichlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, dars jarayonida interfaol ta’lim metodlari, jumladan, “Aqliy hujum”, “Klaster” va kichik guruhlarda ishlash usullaridan foydalanish nazarda tutilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mavzuga oid ko‘rgazmali materiallarning qo‘llanilishi mashg‘ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur dars ishlanmasida otlar paraskaridozining qo‘zg‘atuvchisi – *Parascaris equorum* ning morfologik tuzilishi, anatomik xususiyatlari, biologik rivojlanishi va hayvon organizmida parazitlik qilish xususiyatlari aniq va tushunarli tarzda bayon etilgan. Bundan tashqari, kasallikning tarqalishi, epizootologik xususiyatlari, patogenezi, klinik belgilari, laboratoriya diagnostikasi, davolash va profilaktika choralari yuzasidan zarur ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Dars ishlanmasining amaliy ahamiyati shundaki, unda talabalarni parazitologik tekshirish usullari bilan tanishtirish, paraskaridoz kasalligiga tashxis qo‘yish, boshqa gelmintoz kasalliklardan farqlash hamda samarali profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Umuman olganda, assistent Sh.X. Muxammadiyeva tomonidan tayyorlangan ushbu ochiq amaliy dars ishlanmasi mazmunan izchil, ilmiy-uslubiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi. Mazkur dars ishlanmasini ijobiy baholayman hamda undan oliy ta’lim muassasalarining veterinariya meditsinasi yo‘nalishida ta’lim jarayonida foydalanishni tavsiya etaman.

“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va
patalogik fiziologiya” kafedrasi Assistenti (PhD) **F.D.Ibragimova**